

BANKLARDA YUZAGA KELADIGAN RISKLARNING TURLARI VA KREDIT RISKINI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Karimov Shamsiddin Akram o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish
va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi,
mustaqil tadqiqotchi (PhD).
ORCID: 0009-0006-3233-3602

Annotatsiya

Maqolada risklarning mohiyati, tijorat banklarida yuzaga keladigan risklar va ularning turlari keltirilgan. Shuningdek, banklarda yuzaga keladigan eng asosiy risklardan biri bo'lgan kredit riski atroflicha yoritilgan hamda kredit risklarni baholash va boshqarish bo'yicha tegishli taklif va tavsiyalar keltirib o'tilgan. Tijorat banklari kredit qo'yilmalarining tarmoqlar bo'yicha tahlillari amalga oshirilgan va ularning risklarga ta'siri o'rganilgan. Kredit risklarini kamaytirish uchun taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: risk, kredit risklar, bozor risklari, foiz risklari, valyuta risklari, likvidlik riski, operatsion risklar, risk menejment, risklarni baholash va boshqarish, kreditlar, depozitlar, muammoli kreditlar.

Аннотация

В статье представлена сущность рисков, риски, возникающие в коммерческих банках, и их виды. Также подробно освещен кредитный риск, который является одним из основных рисков, возникающих в банках, и даны соответствующие предложения и рекомендации по оценке и управлению кредитными рисками. Проведен анализ кредитных вложений коммерческих банков по секторам и изучено их влияние на риски. Даны предложения и рекомендации по снижению кредитных рисков.

Ключевые слова: риск, кредитные риски, рыночные риски, процентные риски, валютные риски, риск ликвидности, операционные риски, управление рисками, оценка и управление рисками, кредиты, депозиты, проблемные кредиты.

Abstract

The article presents the nature of risks, risks that occur in commercial banks and their types. Also, the credit risk, which is one of the main risks that arise in banks, is covered in detail, and the relevant suggestions and recommendations for the evaluation and management of credit risks are given. Analyzes of credit investments of commercial banks by sector were carried out and their impact on risks was studied. Proposals and recommendations are given to reduce credit risks.

Keywords: risk, credit risks, market risks, interest risks, currency risks, liquidity risk, operational risks, risk management, risk assessment and management, loans, deposits, problem loans.

KIRISH

Mamlakatimiz ilk bor xalqaro kredit reytingini oldi va jahon moliya bozorida 1 milliard dollarlik obligatsiyalarini muvaffaqiyatli joylashtirdi. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti tomonidan O'zbekistonning kreditga doir tavakkalchilik reytingi oxirgi 10 yilda birinchi marta yaxshilandi [1].

Shu bilan birgalikda, mamlakatimizda bank sohasidagi hozirgi holat tahlili bank sektorida davlatning yuqori darajadagi aralashuvi, davlat ishtirokidagi banklarda menejment va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatining yetarli emasligi [2] sohada bir qancha muammolar mavjudligini ko'rsatmoqda.

Bu esa banklarda risklarni baholash va boshqarish maqsadida nazariy hamda amaliy ahamiyati yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borishni talab etadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Bugungi kunga qadar risk atamasiga turlicha ta'riflar berilgan. Jumladan, J.P.Morgan riskni kelajakdagi sof daromadga nisbatan noaniqlik darajasi sifatida belgilaydi. Ba'zi bir iqtisodchilar riskni "xatar", "xavf-xatar" deb ifodalaydilar, jumladan, professor A.O'lmasov "Firmaning o'z foydasi va hatto kapitalidan ajralib qolish ehtimoli tadbirkorlik xatari deyiladi" [3] deb ta'rif berib o'tgan.

Mahalliy olimlarimizda Y. Abdullayev, T. Boboqulovlar o'z ishlarida "Foiz xavf-xatari deganda, foiz stavkalarining darajasi va harakatining o'zgarishi natijasida zarar ko'rish xavfi" [4] deya ta'rif berishgan.

Shuningdek, ba'zi bir olimlar esa riskni "tavakkalchilik", "noaniqlik", "qaltislik", "tahlika" deya ta'rif berishadi. Misol uchun, Sh.Shodmonov, R.Alimov, T.Jo'rayevlar "Tadbirkorlik (tadbirkorlik faoliyati) — yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan mulkiy mas'uliyat ostida, mavjud qonunlar doirasida, daromad (foyda) olish maqsadida, tahlika bilan amalga oshiriladigan iqtisodiy faoliyatdir" [5] deb tadbirkorlikka bergan ta'rifida riskni tahlika deb qo'llagan bo'lsa, xuddi shunday ta'rifda A. O'lmasov, M. Sharifxo'jayevlar riskni tavakkalchilik deb ifodalashadi.

Bank riskini boshqarish tizimi riskni yuzaga kelishi oldindan xomcho't qilish, risk tufayli yuzaga keladigan holatlarga yo'l qo'ymaslik yoki ularning ta'sirini kamaytirish borasida chora-tadbirlar, usullar yig'indisini o'z ichiga oladi [6]. Bundan ko'rinib turibdiki, bank risklarini boshqarish bir qancha bosqichlarda amalga oshiriladi.

Bank risklarini boshqarish bank boshqaruvining ajralmas qismi sifatida har bir bank operatsiyasida yuzaga keladigan risklarni boshqarishni nazarda tutadi. Bank risklarini boshqarishni tizim sifatida qarash maqsadga muvofiq, chunki risklarni boshqarish o'zaro bir-biri bilan bog'langan bir qancha unsurlarni o'z ichiga oladi.

Risklarni hisobga olish, tashkilotning tashkiliy tizimini, moliyaviy resurslarni, faoliyatni va boshqarishni optimallashtirishga yordam beradi. Bu tashkilotning uzluksiz rivojlanishini ta'minlash va potensial zararlarni minimalga tushirishga qaratilgan muhim jarayonlardan biridir.

METODOLOGIYA

Maqolada tijorat banklarida mavjud tavakkalchiliklarni aniqlash, baholash, boshqarish hamda tahlil qilishda e'tiborga olinishi lozim bo'lgan jihatlarni tadqiq etish

bo'yicha xorijiy hamda mahalliy olimlar tomonidan o'tkazilgan ilmiy tadqiqot ishlarining ilmiy xulosalari hamda mualliflarning amaliy tajribalari asosida mustaqil qarashlar shakllantirildi. Shu bilan birgalikda, mantiqiy, analitik taqqoslash hamda guruhlash kabi usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Aksariyat iqtisodchi olimlar tomonidan tijorat banklari faoliyatiga xos bo'lgan asosiy risk turlari sifatida quyidagilar e'tirof etiladi: kredit riski, foiz riski, valyuta riski, operatsion risk, likvidlilik riski, bozor riski [7].

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2023-yil 18-apreldagi "Banklar va banklar guruhlarining tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga doir talablar to'g'risidagi" 3427-sonli Nizomda tavakkalchilik 5 ta yirik guruhga ajratilgan:

- kredit tavakkalchiligi;
- likvidlilik tavakkalchiligi;
- bozor tavakkalchiligi;
- komplayens tavakkalchiligi;
- operatsion tavakkalchilik.

Kredit riski bu qarz oluvchiga pul mablag'larini taqdim etganda qarz beruvchining pul yo'qotishi deyishimiz mumkin. Kredit riski qarz oluvchining kreditni qaytara olmasligi natijasida moliyaviy yo'qotish ehtimolidir. Kredit riskini aniq baholay olmaslik kreditorning asosiy qarz va foizlarni olmaslik xavfini keltirib chiqaradi, bu esa pul oqimining uzilishiga va undirish uchun xarajatlarning oshishiga olib keladi.

Amerikalik iqtisodchi olim Milten Fridman kredit riskini bank aktivlarining nolikvidligidan kelib chiquvchi yo'qotish ehtimoli sifatida ta'riflaydi. U banklar tomonidan qarzlarning to'lanmasligi yoki to'liq to'lanmasligi xavfini kredit riskining asosiy tarkibiy qismi [8] deb hisoblagan.

Harry Markowitz esa kredit riskini portfeldagi aktivlar orasidagi korrelyatsiya darajasi orqali ifodalaydi. [9] U kredit riskini diversifikatsiya qilish orqali kamaytirishga bo'lgan e'tiborni qaratgan.

Amerikalik italian olim Franco Modigliani kredit riskini kompaniyaning mulk tarkibi va moliyaviy strukturasi bilan bog'liq deb hisoblagan. [10] U ushbu omillarning kompaniyaning qarz olish xavfiga ta'sirini tahlil qilgan.

Qonunchilikda esa "kredit tavakkalchiligi — qarzdorning bank oldidagi majburiyatlari shartnoma yoki qonunchilik hujjatlarida ko'rsatilgan muddat va (yoki) shartlarda bajarilmasligi (lozim darajada bajarilmasligi) oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zarar (yo'qotish) ko'rish va (yoki) rejalashtirilgan daromadni olmaslik ehtimolligi" [11] deya tariflab o'tilgan.

Bankda kredit risklarini aniqlash, baholash, monitoring qilish, nazorat qilish va kamaytirishga xizmat qiluvchi kredit tavakkalchiligini boshqarish tizimi (risk menegment) joriy etilishi lozim.

Kredit tavakkalchiligini boshqarish tizimi kredit tavakkalchiligi bo'yicha o'rnatilgan risk-appetitni, kredit siyosati hamda kredit tavakkalchiligini boshqarish

jarayonlarini, kredit ajratishga doir qarorlar qabul qilish jarayonini, aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish jarayonini, muammoli aktivlarni aniqlash va ular bilan ishlash tartibini, kredit tavakkalchiligini stress-testdan o'tkazish tartibini, kapital monandligini baholash bo'yicha ichki jarayonlarni (ICAAP) (joriy qilingan bo'lsa), kredit tavakkalchiligi bo'yicha hisobot berish jarayonini o'z ichiga olishi lozim.

Kredit tavakkalchiligini boshqarishda bank balansi va balansdan tashqari moddalaridan quyidagilar hisobga olinishi lozim:

- bankning kredit bo'yicha talablari, shu jumladan qarz, kredit, mikroqarz, mikrokredit, lizing, overdraft (mijozlarning depozit hisobvaraqlaridagi debet qoldig'i), faktoring;

- banklar va boshqa moliyaviy tashkilotlardan olinishi lozim bo'lgan mablag'lar;

- kredit tavakkalchiligi mavjud bo'lgan balansdan tashqari majburiyatlar, shu jumladan foydalanilmagan kredit liniyalari, chaqirib olinmaydigan majburiyatlar, kreditlash bo'yicha boshqa majburiyatlar, savdoga oid moliyalashtirishlar (akkreditiv, kafolat va kafilliklar);

- hosilaviy instrumentlar bo'yicha bank balansidagi talablar va boshqa kredit tavakkalchiligi mavjud bo'lgan aktivlar.

Bankda kreditlash jarayonini tashkil etish maqsadida kredit siyosati quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

kredit tavakkalchiligi mavjud bo'lgan aktivlar ajratilishining asosiy yo'nalishlari, shu jumladan iqtisodiyot tarmog'i, valyuta turi, muddati, ta'minot turi va (yoki) kredit mahsulotlari kesimida kreditlashning maqsadli yo'nalishlari tavsifini;

qarz oluvchilarning to'lovga layoqatlilikini baholash, ularning moliyaviy holatini tahlil qilishning umumiy tamoyillarini;

ta'minotning turlari va ularning bahosini kelishishga qo'yilgan talablarni, kreditning (qarzning) ta'minlanganlik darajasini;

ta'minotsiz kreditlar (ishonchga asoslangan kreditlar) berishga qo'yilgan talablarni;

kredit mahsulotlari uchun narxlarni (tariflarni) belgilashning umumiy tamoyillarini;

kredit ajratish bo'yicha filiallar tomonidan mustaqil qarorlar qabul qilishda kreditlashning limitlarini belgilash mezonlarini ko'rsatgan holda bosh bank va uning filiallari o'rtasida javobgarlikning aniq chegaralarini;

kreditlash uchun mas'ul bo'lgan barcha shaxslarning vakolatlarini;

kredit qo'mitasi majlislari va uning bank boshqaruvi organlari oldida hisobot berish davriyligini.

1-jadval

Tijorat banklarining kredit va depozitlar to'g'risida 2024-yil 1-iyul holatiga ma'lumot¹

mlrd.so'm

№	Bank nomi	Jami kreditlar	shundan		Jami depozitlar	shundan	
			jismoniy shaxslar	yuridik shaxslar		jismoniy shaxslar	yuridik shaxslar
	Jami	493 952	161 071	332 881	265 472	97 248	168 224
	Davlat ulushi mavjud banklar	345 501	82 922	262 578	135 674	41 861	93 813
1	O'zmilliybank	101 652	16 274	85 378	38 057	10 682	27 376
2	O'zsanoatqurilishbank	60 330	8 883	51 447	15 906	4 652	11 254
3	Agrobank	59 308	8 508	50 800	17 008	8 295	8 713
4	Asaka bank	37 181	8 203	28 978	12 852	5 358	7 494
5	Xalq banki	27 251	18 025	9 226	20 490	3 734	16 756
6	Biznesni rivojlantirish banki	21 072	10 491	10 581	9 203	1 656	7 547
7	Mikrokreditbank	15 409	6 105	9 304	7 003	2 017	4 986
8	Turon bank	12 099	2 479	9 619	4 846	1 648	3 198
9	Aloqa bank	11 064	3 916	7 148	10 214	3 807	6 407
10	Poytaxt bank	135	38	97	94	13	82
	Boshqa banklar	148 451	78 148	70 303	129 799	55 387	74 411
11	Ipoteka-bank	35 653	22 933	12 720	20 455	4 020	16 435
12	Kapital bank	29 317	18 471	10 846	33 639	19 027	14 611
13	Hamkorbank	17 995	8 263	9 732	9 728	5 245	4 483
14	Ipak yo'li bank	12 997	3 160	9 837	9 358	3 091	6 267
15	Orient Finance bank	8 889	3 498	5 391	8 194	3 021	5 173
16	Invest Finance bank	6 498	3 069	3 429	8 024	4 129	3 895
17	Davr bank	5 639	3 971	1 668	2 959	1 155	1 804
18	Trastbank	5 477	2 695	2 782	7 039	1 750	5 289
19	Tibisi bank	5 175	4 918	257	3 301	3 166	136
20	Anor bank	4 960	3 619	1 341	5 787	3 857	1 930
21	Tenge bank	3 969	1 465	2 504	2 046	1 231	815
22	Asia Alliance bank	3 699	1 354	2 345	5 176	1 829	3 347
23	KDB Bank O'zbekiston	2 990	13	2 977	5 961	735	5 226
24	Ziraat Bank Uzbekistan	1 963	147	1 816	2 333	1 126	1 207
25	Universal bank	1 336	241	1 095	1 803	826	977
26	Garant bank	860	162	698	1 183	805	378
27	Hayot bank	311	0,0	311	440	22	418
28	Madad Invest bank	288	11	277	38	21	16
29	AVO bank	138	126	12	15	1,4	14
30	Uzum bank	87	0,0	87	10	0,1	10
31	Apeks bank	86	4	82	238	21	217
32	Yangi bank	69	4	66	20	8	13
33	Oktobank	31	15	16	2 001	291	1 710
34	Eron Soderot bankining ShB	22	12	10	45	1,7	43
35	Smart bank	0,2	0,2	0,0	6	6	0,0

Joriy yilning 6 oyi davomida Mamlakatimizda mavjud bo'lgan tijorat banklari tomonidan jami 493 952 mlrd.so'm miqdorida kreditlar ajratilgan [12] bo'lib, ularning qariyb 69,9 foizi (345 501 mlrd.so'm) davlat ulushi mavjud banklar hissasiga to'g'ri keladi. Eng yuqori ko'rsatkichlar O'zmilliy bank (20,6 foiz), O'zsanoatqurilishbank (12,2 foiz) hamda Agrobank (12 foiz) hissasiga to'g'ri keladi.

¹ <https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/1785819/> Markaziy bank rasmiy veb sayti ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Boshqa xususiy tijorat banklari tomonidan esa 148 451 (jamiga nisbatan 30 foiz) mlrd.so‘m miqdorida kreditlar ajratilgan bo‘lib, asosiy kreditlar Ipateka-bank (7,3 foiz) hamda Kapital bank (5,9 foiz) larga tegishli.

2-jadval

Tijorat banklari kredit qo‘yilmalarining tarmoqlar bo‘yicha ulushi ¹

Ko‘rsatkichlar nomi	01.07.2023 y.		01.07.2024 y.		O‘zgarishi, foizda
	mlrd. so‘m	ulushi, foizda	mlrd. so‘m	ulushi, foizda	
Jami kreditlar	423 773	100%	493 952	100%	17%
Sanoat	126 035	30%	139 179	28%	10%
Qishloq xo‘jaligi	44 099	10%	51 635	10%	17%
Qurilish sohasi	11 243	3%	12 383	3%	10%
Savdo va umumiy xizmat	30 858	7%	35 680	7%	16%
Transport va kommunikatsiya	30 379	7%	34 050	7%	12%
Moddiy va texnik ta‘minotni rivojlantirish	4 235	1,0%	3 289	0,7%	-22%
Uy-joy kommunal xizmati	1 941	0,5%	2 269	0,5%	17%
Jismoniy shaxslar	123 974	29%	161 071	33%	30%
Boshqa sohalar	51 008	12%	54 395	11%	7%

Shuningdek, joriy yilda kredit ulushi o‘tgan yilga nisbatan 17 foizga o‘sishi kuzatilgan. Jumladan yuqori o‘sishlar jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar (30 foizga o‘sgan), qishloq xo‘jaligi hamda uy-joy kommunal xizmati (ikkalasi ham 17 foizga o‘sgan) sohalariga to‘g‘ri kelgan.

3-jadval

Tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL) to‘g‘risida
2024-yil 1-iyul holatiga ma‘lumot²

mlrd.so‘m

№	Bank nomi	Kreditlar	Muammoli kreditlar (NPL)	Muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi
	Jami	493 952	20 000	4,0%
	Davlat ulushi mavjud banklar	345 501	15 102	4,4%
1	O‘zmilliybank	101 652	2 927	2,9%
2	O‘zsanoatqurilishbank	60 330	2 380	3,9%
3	Agrobank	59 308	2 032	3,4%
4	Asaka bank	37 181	1 728	4,6%
5	Xalq banki	27 251	1 591	5,8%
6	Biznesni rivojlantirish banki	21 072	2 628	12,5%
7	Mikrokreditbank	15 409	1 049	6,8%
8	Turon bank	12 099	314	2,6%
9	Aloqa bank	11 064	453	4,1%
10	Poytaxt bank	135	1	0,7%
	Boshqa banklar	148 451	4 898	3,3%
11	Ipoteka-bank	35 653	2 691	7,5%
12	Kapital bank	29 317	859	2,9%

¹ <https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/1785819/> Markaziy bank rasmiy veb sayti ma‘lumotlari asosida tayyorlandi.

² <https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/1785819/> Markaziy bank rasmiy veb sayti ma‘lumotlari asosida tayyorlandi.

№	Bank nomi	Kreditlar	Muammoli kreditlar (NPL)	Muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi
13	Hamkorbank	17 995	219	1,2%
14	Ipak yo'li bank	12 997	179	1,4%
15	Orient Finance bank	8 889	10	0,1%
16	Invest Finance bank	6 498	104	1,6%
17	Davr bank	5 639	34	0,6%
18	Trastbank	5 477	96	1,7%
19	Tibisi bank	5 175	129	2,5%
20	Anor bank	4 960	122	2,5%
21	Tenge bank	3 969	138	3,5%
22	Asia Alliance bank	3 699	81	2,2%
23	KDB Bank O'zbekiston	2 990	0	0,0%
24	Ziraat Bank Uzbekistan	1 963	29	1,5%
25	Universal bank	1 336	11	0,8%
26	Garant bank	860	127	14,8%
27	Hayot bank	311	0	0,0%
28	Madad Invest bank	288	66	22,8%
29	AVO bank	138	0	0,0%
30	Uzum bank	87	0	0,0%
31	Apeks bank	86	0	0,0%
32	Yangi bank	69	0	0,0%
33	Oktobank	31	0	0,0%
34	Eron Soderot bankining ShB	22	3	12,5%
35	Smart bank	0	0	0,0%

Yuqoridagi o'sishlar bilan birgalikda tijorat banklaridagi muammoli kreditlar ulushi ham o'sib bormoqda. Joriy yilda ajratilgan kreditlarning umumiyga nisbatan 4,0 foizi muammoli kreditlar hissasiga to'g'ri kelmoqda. Eng yuqori salbiy ko'rsatkich Biznesni rivojlantirish bankiga tegishli bo'lib, muammoli kreditlar hajmi 12,5 foizga to'g'ri kelmoqda.

Yuqoridagilardan ko'rish mumkinki, kredit riskini hisobga olish, jumladan, kredit qaytarilmaslik xavfini baholash va boshqarish bugungi kunda dolzarb mavzu ekanligini ko'rsatadi.

Banklar, odatda, risklarni boshqarishda quyidagi amallarni bajaradilar:

risklarni aniqlash – bank potensial risklarni aniqlash uchun keng qamrovli tavakkalchilik inventarizatsiyasini o'tkazadi. Bu kredit riski, bozor riski, likvidlik riski, operatsion risk kabi turli xil risklarni o'z ichiga oladi;

risk o'lchovi – bank aniqlangan risklarning kattaligi va ta'sirini o'lchaydi. Bu xavfning ehtimoli va ta'sirini baholash orqali amalga oshiriladi. Xavfni o'lchash ko'pincha statistik modellar va matematik usullar yordamida amalga oshiriladi;

risklarni baholash – bank aniqlangan xavflarning ahamiyatini baholaydi va ustuvorligini belgilaydi. Bu tavakkalchiliklar ta'sirini, bankning kapital tuzilishini hisobga olgan holda amalga oshiriladi;

risklarni boshqarish – bank risklarni boshqarish uchun tegishli strategiya va siyosatlarni ishlab chiqadi. Bunga xavfni kamaytirish yoki uzatish, tegishli nazoratni amalga oshirish va xavflardan himoya qilish kabi qadamlar kiradi. Risklarni boshqarish doimiy jarayon bo'lib, muntazam ravishda ko'rib chiqiladi;

monitoring va hisobot – bank risklarni monitoring qilish va hisobot berish tizimlarini yaratadi. Bunga xavflarni monitoring qilish, erta ogohlantirish tizimlaridan foydalanish va xavf hisobotlarini tayyorlash orqali erishiladi. Shunday qilib, risklarni samarali boshqarish va kerak bo‘lganda aralashuvni amalga oshirish ta’minlanadi.

Banklarda riskni baholash aniq va obyektiv, ya’ni ishonchli bo‘lgan ma’lumotlarga asoslanishi, kredit portfeli sifatini oshirish bo‘yicha xulosa va tavsiyalar tahliliy hisob-kitoblardan kelib chiqib berilishi lozim.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Kredit risklarini kamaytirish uchun quyidagi yo‘llar tavsiya etiladi:

Diversifikatsiya. Bunda kreditlar va investitsiyalarni turli sohalar, hududlar va mijozlar o‘rtasida taqsimlash orqali kredit riskini diversifikatsiya qilish nazarda tutiladi. Bu esa kredit portfelinin jami risklarini pasaytirish imkonini beradi;

Kreditga olinayotgan aktivlarni diqqat bilan baholash. Ya’ni qarz oluvchining to‘lov qobiliyatini, moliyaviy holati, o‘tgan faoliyatini chuqur o‘rganish hamda kreditga olinayotgan aktivlarning haqiqiy qiymatini aniq baholash;

Kredit sifati monitoringi. Bunda, kreditga olingan aktivlar va qarz oluvchining moliyaviy holati, to‘lov intizomini doimiy kuzatib borish. Shuningdek, sifat o‘zgarishlarini o‘z vaqtida aniqlash va zarur hollarda choralar ko‘rish;

Kredit limitlarini joriy etish. Bunda, alohida qarz oluvchilarga, sektorlarga, mintaqalarga berilishi mumkin bo‘lgan maksimal kredit limitlarini belgilash. Bu kredit portfeli tarkibini muvozanatlab turish imkonini beradi;

Kredit sug‘urtasi va boshqa riskni zararlanuvchi tomonlarga o‘tkazish. Kredit defolt swaplari, kredit-bog‘langan obligatsiyalar kabi instrumentlardan foydalanish.

Yuqori rivojlangan kreditni baholash va monitoring tizimlari. Bunda, samarali axborot tizimlari va modellardan foydalanish. Bu kredit riskini tezkor baholash va monitoring qilish imkoniyatini yaratish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi (24.01.2020)
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida” PF-5992-son Farmoni, 12.05.2020-yil.
3. O‘lmasov A. Iqtisodiyot asoslari. — T.: “Mehnat”, 1997-y. 165 bet.
4. Abdullayev Y, Boboqulov Kredit: 100 savolga 100 javob.- T.: «Mehnat», 1996-y. 80 bet.
5. Shodmonov Sh., Alimov R., Jo‘rayev T. Iqtisodiyot nazariyasi. — T.: “Moliya”, 2002-y.
6. Abdullayeva Sh.Z. Bank risklari va kreditlash. -T.: “Moliya”, 2002. 304 b.
7. Isakov J.Y., Adilova Z.Dj., Xonto‘rayev B.A. “Bank risklari” o‘quv qo‘llanma, Iqtisodiyot, Toshkent-2020, 12-bet.
8. Milton Friedman "A Monetary History of the United States, 1867-1960" (1963).
9. Harry Markowitz "Portfolio Selection" (1952).

10. Franco Modigliani "The Cost of Capital, Corporation Finance and the Theory of Investment" (1958).
11. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2023-yil 18-apreldagi "Banklar va banklar guruhlarining tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga doir talablar to'g'risidagi" 3427-sonli Nizom.
12. www.cbu.uz - Markaziy bank rasmiy veb sayti.